

Fizika va astronomiya o`qitish metodikasi

5110200 - Fizika va astronomiya o`qitish metodikasi -umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun fizika va astronomiya bo`yicha o`qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig`indisidan iborat bo`lgan ta`lim yo`nalishidir.

5110200 – Fizika va astronomiya o`qitish metodikasi ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi

5110200 – Fizika va astronomiya o`qitish metodikasi –umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun fizika va astronomiya bo`yicha o`qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig`indisidan iborat bo`lgan ta`lim yo`nalishidir.

4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari

5110200 – Fizika va astronomiya o`qitish metodikasi ta`lim yo`nalishida bakalavrlarning **kasbiy faoliyati obyektlari** – umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta`lim muassasalari, o`quvchilar, o`quv-tarbiya jarayoni, o`qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, quyosh sistemasi va galaktika qonunlari, fizik hodisalar.

4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari

5140200-Fizika va astronomiya ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr o`z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- *o`qituvchilik;*
- *tarbiyachilik;*
- *o`quv-metodik;*
- *ilmiy-tadqiqot.*

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta`lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta`lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

5110200 – Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr ta‘lim dasturini o‘zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

- **o‘qituvchilik:** umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariida fizika va astronomiya o‘qituvchisi bo‘lib ishlash;

- **tarbiyachilik:** umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariidan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo‘lib ishlash;

- **o‘quv-metodik:** mos ta‘lim yo‘nalishlar bo‘yicha ta‘limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo‘lib ishlash;

ilmiy-tadqiqot muassasalarida kichik ilmiy xodim bo‘lib ishlash va boshqalar.